# III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI



2024- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar) larining umumiy hajmi 10 104,5 mlrd. so‘mni yoki 2023 yilning shu davriga nisbatan 3,4 foizga o‘sdi, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik hamda ushbusohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 9 839,5 mlrd. so‘mni (103,2 %), ovchilik sohasida ko‘rsatilgan xizmatlar 0,1 mlrd. so‘mni (102,0 %), o‘rmon xo‘jaligida 158,8 mlrd. so‘mni (103,6 %), baliqchilik xo‘jaligida 106,1 mlrd. so‘mni(127,1 %) tashkil qildi. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)lari hajmining o‘sishi asosan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohada ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli darajada ortishi bilan bog‘liqdir.

Xususan, yuqori o‘sish sur’atlari Do‘stlik (110,5 %), G‘allaorol (105,8 %), Arnasoy (104,2 %) va Zafarobod (103,9 %) tumanlarida kuzatildi.O‘z navbatida Jizzax shahri (100,1 %) va Mirzacho‘l tumanida (101,1 %) nisbatan past o‘sish sur’atlari kuzatildi.



**2024- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining tarkibiy tuzilishida eng yuqori ulush dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi (umumiy hajmga nisbatan 72,2 foiz).

**Dehqonchilik.** 2024- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 2 709,5 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 104,6 foizni,ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida ulushi 27,8 foizni tashkil qildi.

**Hosilni yig‘ib olish**. Hisobot davrida barcha toifadagi xo‘jaliklarda 459 548 tonna (o‘tgan yilga nisbatan 103,4 %) jami don, 454 945 tonna (103,1 %) boshoqli don, 427 647 tonna (104,6 %) bug‘doy, 1 623 tonna (104,4 %) makkajo‘xori, 13 318 tonna (107,2 %) kartoshka kovlab olindi, 62 530 tonna (100,2 %) sabzavotlar, 10 240 tonna (101,3 %) oziqbop poliz, 17 329 tonna (101,3 %) mevalar va rezavorlar, 698 tonna (102,2 %) uzum yig‘ib olindi.



**2024- yilning yanvar-iyun oylarida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| | *Barcha toifadagi xo‘jaliklar* | | *Shu jumladan:* | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | *Fermer xo‘jaliklari* | | *Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari* | | *Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar* | |
| | *tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* | *tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* | *tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* | *tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* |
| Don jami | 459 548 | 103,4 | 425 223 | 107,9 | 10 126 | 103,0 | 24 199 | 59,7 |
| Boshoqli don | 454 945 | 103,1 | 422 903 | 107,7 | 9 491 | 102,2 | 22 551 | 57,4 |
| shundan: bug‘doy | 427 647 | 104,6 | 403 750 | 108,8 | 6 107 | 102,7 | 17 790 | 56,1 |
| makkajo‘xori don uchun | 1 623 | 104,4 | 954 | 126,4 | 533 | 100,2 | 136 | 50,9 |
| Kartoshka | 13 318 | 107,2 | 4 498 | 123,4 | 8 665 | 100,4 | 155 | 110,7 |
| Sabzavotlar-jami | 62 530 | 100,2 | 19 855 | 91,9 | 41 532 | 103,7 | 1 143 | 153,0 |
| Poliz – jami | 10 240 | 101,3 | 6 929 | 172,0 | 2 165 | 101,5 | 1 146 | 29,0 |
| Mevalar va rezavorlar-jami | 17 329 | 101,3 | 4 311 | 103,7 | 12 893 | 100,2 | 125 | 134,4 |
| Tokzorlar | 698 | 102,2 | 136 | 116,2 | 562 | 101,1 | - | - |



## 2024 yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish



### HUDUDLAR BO‘YICHA DON YETISHTIRISH

**Boshoqli don**

| Hajmi *(ming tonna)* | Hudud | Viloyatning umumiy hajmga nisbatan ulush, % da |
|---|---|---|
| 0,5 | Jizzax sh. | 0,1 |
| 1,2 | Forish | 0,3 |
| 2,0 | Yangiobod | 0,4 |
| 11,4 | G‘allaorol | 2,5 |
| 11,7 | Baxmal | 2,6 |
| 25,5 | Zomin | 5,6 |
| 33,5 | Zafarobod | 7,4 |
| 41,3 | Arnasoy | 9,1 |
| 44,9 | Sh.Rashidov | 9,9 |
| 59,3 | Zarbdor | 13,0 |
| 62,9 | Mirzacho‘l | 13,8 |
| 73,5 | Paxtakor | 16,1 |
| 87,3 | Do‘stlik | 19,2 |

**Bug‘doy**

| Hajmi *(ming tonna)* | Hudud | Viloyatning umumiy hajmga nisbatan ulush, % da |
|---|---|---|
| 0,1 | Jizzax sh. | 0,0 |
| 0,2 | Forish | 0,1 |
| 0,6 | Yangiobod | 0,1 |
| 3,2 | Baxmal | 0,8 |
| 4,0 | G‘allaorol | 0,9 |
| 20,0 | Zomin | 4,7 |
| 33,3 | Zafarobod | 7,8 |
| 41,1 | Arnasoy | 9,6 |
| 43,4 | Sh.Rashidov | 10,1 |
| 58,7 | Zarbdor | 13,7 |
| 62,8 | Mirzacho‘l | 14,7 |
| 72,9 | Paxtakor | 17,1 |
| 87,2 | Do‘stlik | 20,4 |



## HUDUDLAR BO‘YICHA MAKKAJO‘XORI, DON UCHUN YETISHTIRISH




### Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




Makkajo‘xori don yetishtirishning eng katta hajmi 954 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 58,8 foizi fermer xo‘jaliklarida qayd etildi.

Eng kam hajm 136 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 8,4 foizi qishloq xo‘jaliklari tashkilotlarida kuzatildi.

2024 yilning yanvar-iyun oylarida o‘tgan yilga nisbatan, fermer xo‘jaliklarida 26,4 foiz, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 0,2 foizga o‘sish kuzatildi.



# HUDUDLAR BO‘YICHA KARTOSHKA YETISHTIRISH




## Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




Kartoshka yetishtirishning eng katta hajmi 8,7 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 65,0 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida qayd etildi.

Eng kam hajm 155 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 1,2 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan kuzatildi.

2024 yilning yanvar-iyun oylarida o‘tgan yilga nisbatan, fermer xo‘jaliklarida 23,4 foiz, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 0,4 foizga o‘sish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO‘YICHA SABZAVOTLAR YETISHTIRISH




### Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




Savzavotlar yetishtirishning eng katta hajmi 41,5 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 66,4 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida qayd etildi.

Eng kam hajm 1,1 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 1,8 foizi qishloq xo‘jaligi korxonalarida kuzatildi.

2024 yilning yanvar-iyun oylarida o‘tgan yilga nisbatan, fermer xo‘jaliklarida 31,8 foizi, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 66,4 foizga o‘sish kuzatildi.

**Chorvachilik.** Chorvachilik sohasining imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilishi hamda davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan tizimli qo‘llab-quvvatlashlar natijasida qoramollar bosh sonining o‘sishiga, ichki iste’mol bozorlarining chorvachilik mahsulotlari bilan to‘yinishiga imkon yaratdi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida 7 036,2 mlrd. so‘mlik chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarilib, o‘sish sur’ati 2023- yilning shu davriga nisbatan 102,6 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi72,2 fozni tashkil etdi.

2024- yilning 1-iyul holatiga viloyatdagi yirik shohli qoramollar bosh soni 947,9 mingtani (o‘sish sur’ati 102,1 %), shu jumladan sigirlar bosh soni 270,6 mingtani (101,8 %), qo‘y va echkilar bosh soni 2 383,2 mingtani (103,4 %), otlar bosh soni 31,1 mingtani (102,1 %) va parrandalar bosh soni 3 996,9 mingtani (103,0 %)tashkil qildi.



**2024- yil 1-iyul holatiga xo‘jalik toifalari bo‘yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni**

| | *Barcha toifadagi xo‘jaliklar* | | *Shu jumladan:* | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | *Fermer xo‘jaliklari* | | *Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari* | | *Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar* | |
| | *bosh soni* | *o‘sish sur’ati, foizda* | *bosh soni* | *o‘sish sur’ati, foizda* | *bosh soni* | *o‘sish sur’ati, foizda* | *bosh soni* | *o‘sish sur’ati, foizda* |
| Yirik shoxli qoramollar | 947 876 | 102,1 | 62 902 | 113,0 | 848 090 | 101,1 | 36 884 | 110,6 |
| Sigirlar | 270 566 | 101,8 | 20 660 | 122,5 | 238 529 | 100,9 | 11 377 | 91,9 |
| Qo‘y va echkilar | 2 383 249 | 103,4 | 449 631 | 102,0 | 1 552 123 | 100,4 | 381 495 | 119,7 |
| Otlar | 31 080 | 102,1 | 7 713 | 99,5 | 17 927 | 101,8 | 5 440 | 107,4 |
| Parrandalar | 3 996 863 | 103,0 | 292 409 | 104,0 | 1 778 560 | 101,9 | 1 925 894 | 103,9 |

Umumiy bosh soniga nisbatan dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 89,5 foizni, fermer xo‘jaliklarida 6,6 foizni tashkil etdi, sigirlar mos ravishda 88,2 va 7,6 foizni, qo‘ylar va echkilar 65,1 va 18,9 foizni, parrandalar 44,5 va 7,3 foizni tashkil qildi.



## HUDUDLAR BO‘YICHA YIRIK SHOHLI QORAMOLLAR YETISHTIRISH

Yirik shoxli qoramollar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Baxmal tumaniga (17,5 %) to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush G‘allaorol (17,2 %) va Zomin (13,3 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, yirik shoxli qoramollar umumiy bosh sonidagi eng past ulush Jizzax shahri (1,4 %) va Zafarobod tumani (4,4 %) da kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2023- yil yanvar-iyuniga nisbatan eng yuqori o‘sish sur’atlari Jizzax shahri (108,3 %) va Arnasoy (106,4 %) tumanlarida qayd etildi.




**Jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




2024- yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- yirik shoxli qoramollarning umumiy boshsoni 947,9 mingtaga etdi.

- yirik shoxli qoramollar bosh soni 2023- yil 1-iyulga nisbatan 19,9 mingtaga (2,1 %) ko‘paydi.

- yirik shoxli qoramollar bosh soning 89,5foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida o‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida 13,0 foiz, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 1,1 foizga o‘sish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO‘YICHA SIGIRLAR YETISHTIRISH

Sigirlar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Baxmal tumaniga (17,5 %) to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush G‘allaorol (15,3 %) va Zomin (12,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, sigirlarning umumiy bosh sonidagi eng past ulush Jizzax shahri (1,2 %) va Mirzacho‘l tumanida (4,1 %) kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2023 yilning yanvar-iyuniga nisbatan eng yuqori o‘sish sur’atlari Arnasoy tumani (111,4 %) va Zarbdor tumanida (106,7 %) qayd etildi.




**Sigirlar jami bosh soninig xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




2024- yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- sigirlarning umumiy boshsoni 270,6 mingtaga yetdi.

- sigirlar bosh soni 2023- yil 1-iyulga nisbatan 4,9 mingtaga (1,8 %) ko‘paydi.

- sigirlar bosh soning 88,2 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida o‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida 22,5 foizga o‘sish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO‘YICHA QO‘YLAR VA ECHKILAR YETISHTIRISH

Qo‘y va echkilar umumiy bosh sonining eng katta ulushi Forish tumaniga (35,4 %) to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush G‘allaorol (13,4 %) va Baxmal (13,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, qo‘y va echkilar umumiy bosh sonidagi eng past ulush Arnasoy tumanida (1,3 %) va Jizzax shahrida (1,7 %) kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2023 yilning yanvar-iyuniga nisbatan eng yuqori o‘sish sur’atlari Arnasoy (19,4 %) va Paxtakor tumanida (9,3 %) qayd etildi.




**Qo‘ylar jami bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




2024- yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- qo‘y va echkilarning umumiy boshsoni 2 383,2 mingtaga etdi.

- qo‘y va echkilar bosh soni 2023- yilning 1-iyuliga nisbatan 78,5 mingtaga (3,4 %) ko‘paydi.

- qo‘y va echkilar bosh soning 65,1 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida o‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida 2,0 foizgao‘sish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO‘YICHA PARRANDALAR YETISHTIRISH

Parrandalar umumiy bosh soning eng katta ulushi G‘allaorol tumani hissasiga (38,3 %) to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush Zafarobod (11,1 %) va Sharof Rashidov (10,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, parrandalar umumiy bosh sonidagi eng past ulush Yangiobod (1,1 %) va Do‘stlik (1,5 %) tumanlarida kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2023 yilning yanvar-iyuniga nisbatan eng yuqori o‘sish sur’ati Zomin tumanida (142,7 %) qayd etildi.




**Parrandalar jami bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




2024- yilning 1-iyulholatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- Parrandalarning umumiy bosh soni 3 996,9 mingtani tashkil qildi.

- Parrandalar bosh soni 2023- yil 1-iyulga nisbatan 115,7 mingtaga (3,0 %) ko‘paydi.

- Parrandalar bosh soning 48,2 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida o‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida 4,0 foizga o‘sish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO‘YICHA OTLAR YETISHTIRISH

Otlar umumiy bosh soning eng katta ulushi Forish tumani hissasiga (30,8 %) to‘g‘ri keldi. Shuningdek, yuqori ulush Sharof Rashidov (13,2 %) va Baxmal (12,0 %) tumanlarida qayd etildi.

Shu bilan birga, otlarning umumiy bosh sonidagi eng past ulush Jizzax shahri (0,7 %) va Do‘stlik tumanida (0,7 %) kuzatildi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, 2023 yil yanvar-iyunga nisbatan eng yuqori o‘sish sur’atlari Arnasoy tumani (135,8 %) va Jizzax shahrida (135,5 %) qayd etildi.

Soni *(ming bosh)*

| | |
|---|---|
| Jizzax sh. | 0,2 |
| Do‘stlik | 0,2 |
| Yangiobod | 0,5 |
| Paxtakor | 0,6 |
| Arnasoy | 0,7 |
| Mirzacho‘l | 1,6 |
| Zafarobod | 1,7 |
| Zarbdor | 2,5 |
| G‘allaorol | 2,7 |
| Zomin | 2,8 |
| Baxmal | 3,7 |
| Sh.Rashidov | 4,1 |
| Forish | 9,6 |

**Otlar jami bosh soning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




2024- yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- Otlarning umumiy bosh soni 31,1 mingtaga etdi.
- Otlar bosh soni 2023- yil 1-iyulga nisbatan 652 boshga (2,1 %) ko‘paydi.
- Otlar bosh soning 57,7 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida o‘tgan yilga nisbatan fermer xo‘jaliklarida 24,8 foizga o‘sish kuzatildi.



## CHORVACHILIK MAHSULOTLARI

2024- yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 7 036,2 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 102,6 foizni tashkil qildi. Jami yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 72,2 foizni tashkil etdi.




Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli ko‘mak ko‘rsatib kelinayotganligi chorva mollari va parrandalari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vaznda 93,6 ming tonna go‘sht (2023- yilning yanvar-iyuniga nisbatan 1,2 foizga o‘sdi), 303,8 ming tonna sut (1,5 %), 173,3 mln. dona tuxum (2,1 %) va 3 299 dona qorako‘l teri (0 %) yetishtirilib,4 789,8 tonna baliq (26,4 %) ovlandi.



## 2024- yilning yanvar-iyun oylarida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

| | *Barcha toifadagi xo‘jaliklar* | | *Shu jumladan:* | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | *Fermer xo‘jaliklari* | | *Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari* | | *Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar* | |
| | *tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* | *tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* | *tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* | *tonna* | *o‘sish sur’ati, foizda* |
| Go‘sht, tirik vaznda, tonna | 93 620,0 | 101,2 | 2 100,0 | 109,4 | 87 541,0 | 100,3 | 3 979,0 | 121,1 |
| Sut, ming tonna | 303,8 | 101,5 | 8,7 | 96,4 | 292,7 | 101,4 | 2,3 | 151,2 |
| Tuxum, ming dona | 173 332,0 | 102,1 | 17 453,0 | 128,0 | 77 806,0 | 100,5 | 78 073,0 | 99,2 |
| Qorako‘l teri, dona | 3 299,0 | 100,0 | 2 218,0 | 86,4 | 50,0 | 102,0 | 1 031,0 | 151,4 |
| Ovlangan baliq tonna | 4 789,8 | 126,4 | 452,0 | 108,4 | 725,5 | 100,6 | 3 612,3 | 136,3 |



## HUDUDLAR BO‘YICHA GO‘SHT YETISHTIRISH

| Hajmi *(ming tonna)* | | Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi, % da |
|---|---|---|
| 3,0 | Jizzax sh. | 3,2 |
| 3,1 | Yangiobod | 3,4 |
| 3,2 | Arnasoy | 3,4 |
| 3,9 | Mirzacho‘l | 4,1 |
| 4,5 | Paxtakor | 4,8 |
| 4,8 | Zarbdor | 5,1 |
| 5,2 | Zafarobod | 5,5 |
| 6,4 | Do‘stlik | 6,9 |
| 8,8 | Forish | 9,4 |
| 11,2 | Sh.Rashidov | 11,9 |
| 11,9 | G‘allaorol | 12,8 |
| 12,5 | Zomin | 13,4 |
| 15,1 | Baxmal | 16,2 |

### Jami go‘sht yetishtirishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




2024- yilning yanvar-iyun oylarida go‘sht yetishtirish to‘g‘risidagi ma’lumotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil natijalariga ko‘ra, go‘sht yetishtirishning eng katta hajmi 87,5 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 93,5 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida qayd etilganligini ta’kidlash lozim.

Ko‘rsatib o‘tilgan davrlarda, go‘sht yetishtirishning eng kam hajmi 2,1 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 2,2 foizi fermer xo‘jaliklarida kuzatildi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2024- yil yanvar-iyunida fermer xo‘jaliklarida 9,4 foizga, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 0,3 foizga, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 21,1foizga o‘sish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO‘YICHA SUT YETISHTIRISH

| Hajmi *(ming tonna)* | | Viloyatning umumiy hajmga nisbatan ulushi, % da |
|---|---|---|
| 4,9 | Jizzax sh. | 1,6 |
| 10,4 | Mirzacho‘l | 3,4 |
| 13,5 | Yangiobod | 4,4 |
| 13,8 | Arnasoy | 4,5 |
| 14,3 | Forish | 4,7 |
| 15,4 | Zafarobod | 5,1 |
| 17,0 | Paxtakor | 5,6 |
| 20,1 | Zarbdor | 6,6 |
| 22,5 | Do‘stlik | 7,4 |
| 35,7 | Sh.Rashidov | 11,7 |
| 36,1 | Zomin | 11,9 |
| 45,3 | G‘allaorol | 14,9 |
| 54,9 | Baxmal | 18,1 |

**Jami sut yetishtirishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




2024- yilning yanvar-iyun oylarida sut yetishtirish to‘g‘risidagi ma’lumotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil natijalariga ko‘ra, sut yetishtirishning eng katta hajmi 292,7 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 96,4 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida qayd etildi.

Ko‘rsatib o‘tilgan davrda, sut yetishtirishning eng kam hajmi 2,3 ming tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 0,7 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda kuzatildi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2024- yil yanvar-iyunida fermer xo‘jaliklarida 3,6 foiz kamayish, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 1,4 foiz, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 51,2 foiz o‘sish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO‘YICHA TUXUM YETISHTIRISH




### Jami tuxumyetishtirishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




2024 yilning yanvar-iyun oylarida tuxum yetishtirish to‘g‘risidagi ma’lumotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil natijalariga ko‘ra, tuxum yetishtirishning eng katta hajmi 78,1 mln. donayoki umumiy yetishtirish hajmidan 45,0 foizi qishloq xo‘jaligikorxonalaridaqayd etilganligini ta’kidlash lozim.

Ko‘rsatib o‘tilgan davrlarda, tuxum yetishtirishning eng kam hajmi 17,4 mln. dona yoki umumiy yetishtirish hajmidan 10,1 foizi fermer xo‘jaliklarida kuzatildi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2024- yil yanvar-iyunida fermer xo‘jaliklarida 28,0 foiz, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 0,5 foiz o‘sish, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 0,8 foiz kamayish kuzatildi.



## HUDUDLAR BO‘YICHA BALIQ YETISHTIRISH




### Jami baliq yetishtirishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




2024- yilning yanvar-iyun oylarida baliq yetishtirish to‘g‘risidagi ma’lumotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil natijalariga ko‘ra, baliq yetishtirishning eng katta hajmi 3 612,3 tonna yoki umumiy yetishtirish hajmidan 75,4 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda qayd etildi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2024- yil yanvar-iyunida fermer xo‘jaliklarida 8,4 foiz, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 0,6 foiz, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 36,3 foiz o‘sish kuzatildi.